



ISSN 2091-5187

# СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ  
ЖУРНАЛ

№4/2

2024



# СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЖУРНАЛ 2024 йил, 4/2-сони

Муассис: Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти

Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлиги томонидан 2008 йил 31 декабрда  
0561-рақам билан рўйхатга олинган.

ЎзР ОАК Риёсатининг 19.03.2017 й., 239/5-сонли қарори билан эътироф этилган

**Тахририят ижодий  
жамоаси:**

**Бош муҳаррир:**

и.ф.д., проф. М.Э.Пўлатов

**Бош муҳаррир**

**ўринбосари:**

и.ф.н., проф. Д.Х.Асланова

**Масъул котиб:**

и.ф.д., проф. М.Қ.Пардаев

**Муҳаррирлар:**

и.ф.д., доцент Ф.А.Сафаров  
PhD, доцент И.М.Пардаева  
А.Х.Мингбоев

**Техник муҳаррир:**

и.ф.н., проф. А.Н.Холиқулов

**Корректор:**

PhD, доц. С.А.Бабаназарова

**Саҳифаловчи:**

PhD Х.Н.Очилова

1 йилда 4 маротаба  
чоп этилади.

**Ўзбекистон худудида  
тарқатилади.**

**Тахририят манзили:**

140100, Самарқанд шаҳар,  
Амир Темур кўчаси, 9-уй,

тел.: +998(66)233-28-38,  
+998(97)913-74-40

факс: +998(366)231-12-53  
эл.почта:

samisiservis@mail.ru

**Тахририят кенгаши раиси:**

**М.Э.Пўлатов** – Самарқанд иқтисодиёт ва сервис  
институти ректори, и.ф.д., профессор

**Тахририят кенгаши раиси ўринбосари:**

**Д.Х.Асланова** – СамИСИ илмий ишлар ва  
инновациялар бўйича проректори, и.ф.н., профессор

**Тахрир кенгаши аъзолари:**

**Б.А.Бегалов** – Ўзбекистон Республикаси Президенти  
хузуридаги Статистика агентлиги директори, и.ф.д.,  
профессор

**М.Қ.Пардаев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Б.К.Ғоибназаров** – и.ф.д., профессор.

**М.М.Мухаммедов** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Д.Р.Зайналов** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**О.М.Муртазаев** – ТДИУ СФ директори, и.ф.д., проф.

**М.Р.Болтабаев** – ТДИУ профессори, и.ф.д.

**Р.Х.Эргашев** – ҚарМИИ профессори, и.ф.д.

**И.С.Тўхлиев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**К.Б.Уразов** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Қ.Ж.Мирзаев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Б.И.Исроилов** – ТДИУ профессори, и.ф.д.

**Г.М.Шодиева** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Б.Абдукаримов** – СамИСИ профессори, и.ф.н.

**Р.Қобилов** – Самарқанд вилояти ҳокими ўринбосари

**С.Н.Тошназаров** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Р.Н.Нормахматов** – СамИСИ профессори, т.ф.д.

**А.Бектемиров** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**О.М.Пардаев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**М.Т.Алимова** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**З.Дж. Адилова** – ТДИУ профессори, и.ф.д.

**Ш.О.Қувондиқов** – СамИСИ профессори в.б., иқтисод  
фанлари доктори

**Л.Н.Халикова** – СамИСИ профессори, DSc

**Ф.А.Сафаров** – СамИСИ доценти, DSc

**А.М.Каримова** – СамИСИ профессори в.б., DSc

<b>МЕНЕЖМЕНТ ВА МАРКЕТИНГ</b>	
<b>Rayhona Sadriddinova Amriddinova, Shaxrizoda Xolmirzaeva</b> Mehmonxonada sifatni boshqarish tizimini yo'lga qo'yish	148
<b>Мохигул Эркиновна Ахтамова</b> Управление бизнесом в Республике Узбекистан и пути её совершенствования	150
<b>Бахтиёр Васиевич Насимов</b> Идентификация основных проблем и вызовов, связанных с управлением производственными запасами	156
<b>Qobiljon Qaxramon o'g'li Shodmonov</b> Sanoat korxonalarini boshqaruvi samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi	162
<b>Muxabbat Sameyevna Sharipova</b> Yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonida boshqaruvning strategik vazifalari	166
<b>МОЛИЯ, ПУЛ МУОМАЛАСИ ВА КРЕДИТ</b>	
<b>Зухур Давронович Ниёзов, Шухратжон Зухурович Давронов</b> Иқтисодийда молиявий ресурсларни кўпайтириш	173
<b>Азиза Махомадризовна Каримова, Ориф Шакирович Максудов</b> Анализ предпринимательской деятельности в Республике Узбекистан	179
<b>Sanjar Jaloliddin o'g'li Abdusaidov</b> Sug'urta korxonalarida MHSni qo'llashning muammo va yechimlari	184
<b>Pyos Pkhovich Ayubov, Muhriddin Ixtiyor o'g'li Ergashev</b> Valyuta bozori tahlili va uni erkinlashtirish yo'llari	189
<b>Зафаржон Яшинович Рахманов</b> Тижорат банклари фаолиятида трансформацион жараёнлар: муаммо ва ечимлар	192
<b>БУХГАЛТЕРИЯ ҲИСОБИ, ИҚТИСОДИЙ ТАҲЛИЛ ВА АУДИТ</b>	
<b>Nodirbek Xurshid o'g'li Berdiqobilov</b> Korxonalarda xarajatlarning strategik boshqaruv hisobini takomillashtirish	199
<b>Саёхат Зафаровна Зарипова</b> Ведение учета основных средств на основе международных стандартов бухгалтерского учета	203
<b>ТАЪЛИМ, КАДРЛАР ТАЙЁРЛАШ ВА ПЕДАГОГИКА</b>	
<b>Sohiba Sirojiddinova Kamolova, Mohigul Xudoyberdi qizi Jamolova</b> Ta'lim jarayonida axborot texnologiyalarining imkoniyatlari	206
<b>Ithom Begmatdulobovich Mattiyev</b> Sog'lomlashtirish va dunyoqarash texnologiyasi tushunchasining mazmun-mohiyati hamda funksiyalari.	209
<b>Nigina Marupovna Usmanova, Sevinch Sobirjonovna Raxmonkulova</b> Kadrlarni saqlab qolish strategiyalarini qo'llashda kadrlar siyosatining ahamiyati	213
<b>ИБРАТЛИ БИТИКЛАР</b>	
<b>Мамаюнус Қаршибаевич Пардаев</b> Ўзимизга ўзимиз ташвиш орттирмайлик	218

# БУХГАЛТЕРИЯ ҲИСОБИ, ИҚТИСОДИЙ ТАҲЛИЛ

Nodirbek Xurshid o‘g‘li Berdiqobilov – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti “Buxgalteriya hisobi” kafedrasida mustaqil izlanuvchisi

## KORXONALARDA XARAJATLARNING STRATEGIK BOSHQARUV HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada korxonalarda xarajatlarning strategik boshqaruv hisobini takomillashtirish mavzusi korxonada faoliyatini samarali tashkil etish va raqobatbardoshlikni oshirish uchun muhim ahamiyatga ega. Boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonida xarajatlarni tahlil qilish va nazorat qilishning zamonaviy usullarini qo‘llash, strategik rejalashtirish va resurslardan oqilona foydalanishni ta‘minlash hamda xarajatlarning boshqaruv hisobidagi ahamiyatini oshirish orqali korxonaning iqtisodiy ko‘rsatkichlarini yaxshilashga qaratilgan innovatsion yondashuvlar tadqiq etiladi. Bu yo‘nalishda xalqaro tajribalar va mahalliy sharoitlarni hisobga olgan holda, samarali boshqaruv tizimini shakllantirish imkoniyatlari o‘rganilgan.

**Kalit so‘zlar.** Strategik boshqaruv, xarajatlarni boshqaruv hisobi, korxonada samaradorligi, strategik rejalashtirish, resurslarni boshqarish, xarajatlarni tahlil qilish.

**Kirish.** Xarajatlarning strategik boshqaruv hisobi zamonaviy korxonalar uchun dolzarb masala hisoblanadi. Korxonalar faoliyatining samaradorligi bevosita xarajatlarni nazorat qilish va ularni optimallashtirish darajasiga bog‘liq. Bunda, ayniqsa, xarajatlarni strategik boshqarish orqali resurslardan oqilona foydalanish va uzoq muddatli rivojlanish maqsadlariga erishish muhimdir. Jahon miqyosida bu masala bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar olib borilgan bo‘lib, xalqaro tajribalar ko‘rsatmoqda-ki, strategik boshqaruv tizimiga ega bo‘lgan kompaniyalarning samaradorligi sezilarli darajada oshadi. AQShning Harvard Business School tadqiqotlariga ko‘ra, strategik boshqaruv tizimlarini joriy etgan korxonalarining o‘rtacha foyda marjasi 2015-2020 yillar davomida 25% ga oshgan. Yevropa davlatlarida, xususan, Germaniyada bu ko‘rsatkich 18% ni tashkil etgan bo‘lsa, rivojlanayotgan davlatlarda 12% atrofida o‘shirish kuzatilgan. Shu bilan birga, Janubiy Koreyada strategik boshqaruv tizimi joriy qilingan korxonalarining xarajatlarni samaradorligi 10 yil davomida 30% ga oshgan. O‘zbekiston iqtisodiyotida ham xarajatlarni boshqarish tizimi bo‘yicha ijobiy o‘zgarishlar kuzatilmoqda. Xususan, so‘nggi yillarda mamlakatda iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va biznes muhitini yaxshilash bo‘yicha qabul qilingan davlat dasturlari natijasida ko‘plab korxonalarda xarajatlarni tahlil qilish va strategik rejalashtirish jarayonlari rivojlantirilmoqda. Statistik ma‘lumotlarga ko‘ra, 2017-2023 yillar oralig‘ida O‘zbekistonning sanoat korxonalarining rentabelligi 14% dan 18% gacha oshgan. Xalqaro valyuta jamg‘armasi (XVJ) hisobotlariga ko‘ra, rivojlanayotgan mamlakatlarda, jumladan, Markaziy Osiyo davlatlarida, strategik boshqaruv amaliyotlari joriy etilmagan korxonalarining xarajatlarni samaradorligi rivojlangan mamlakatlarnikidan 30-40% pastroq darajada bo‘lgan. Shu boisdan, O‘zbekiston kabi davlatlarda ushbu sohada yangi yondashuvlarni joriy etish katta ahamiyat kasb etadi. Xarajatlarni strategik boshqaruv tizimini shakllantirishda xalqaro tajribadan foydalanish ham dolzarb masaladir. Masalan, Yaponiya kompaniyalari xarajatlarni boshqarishda “Kaizen” tizimidan foydalanib, 5 yil ichida ishlab chiqarish xarajatlarini 20% ga qisqartirishga muvaffaq bo‘lgan. Rossiya iqtisodiyotida esa 2015-2021 yillar davomida strategik boshqaruv amaliyotlari joriy etilgan korxonalarining o‘shirish sur‘ati 15% ni tashkil etdi. O‘zbekiston sanoatida strategik boshqaruv hisobining rivoji uchun texnologik yondashuvlar va innovatsion usullarni joriy etish alohida o‘rin tutadi. Mamlakatda amalga oshirilayotgan "Raqamli O‘zbekiston – 2030" dasturi doirasida korxonalarda raqamli boshqaruv tizimlari joriy qilinmoqda, bu esa xarajatlarni strategik tahlil qilish imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu bilan birga, mahalliy tadqiqotlar ko‘rsatmoqda-ki, o‘z vaqtida va to‘g‘ri amalga oshirilgan xarajatlarni boshqaruv choralarini o‘zining iqtisodiy samaradorligini tezda namoyon qilishi mumkin. Masalan, 2022-yilda O‘zbekistonning yirik sanoat korxonalaridan birida xarajatlarni strategik rejalashtirish tizimi joriy etilgach, bir yil ichida operatsion xarajatlarni 12% ga qisqargan. Shunday qilib, xarajatlarni strategik boshqaruv hisobi korxonalarining uzoq muddatli barqarorligi va rentabelligini oshirishda

muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston sharoitida bu yo‘nalishda amalga oshiriladigan ishlar mamlakat iqtisodiyotini mustahkamlash va raqobatbardoshlikni oshirishga qaratilgan. Shu sababli, xorijiy tajribalarni o‘rganish va mahalliy sharoitlarga moslashtirish strategik boshqaruvni takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Kaplan va David Norton tomonidan ishlab chiqilgan nazariyasida xarajatlarning strategik boshqaruvi muhim o‘rin tutadi. Kaplanning fikricha, xarajatlarni boshqarish faqat moliyaviy natijalarga emas, balki mijozlar qoniqishi, ichki jarayonlar samaradorligi va o‘qitish-innovatsiyaga ham yo‘naltirilishi kerak. Bu yondashuv kompaniyalarning uzoq muddatli strategik maqsadlariga erishish imkoniyatini oshiradi[1]. Anthony G. Hopwood boshqaruv hisobining ijtimoiy va tashkilotlararo jihatlarini o‘rganishda yetakchi olimlardan biri hisoblanadi. U xarajatlarning boshqaruv hisobida tashkilot ichidagi jarayonlarni chuqurroq tushunish va qaror qabul qilish uchun ma‘lumotni vizualizatsiya qilishning ahamiyatini ta‘kidlaydi. Uning fikricha, strategik boshqaruv hisobining samaradorligi menejrlarning buxgalteriya ma‘lumotlaridan qanchalik foydalana olishiga bog‘liq[2]. T. Horngren boshqaruv hisobi nazariyasi va amaliyoti bo‘yicha bir nechta mashhur kitoblarning muallifi hisoblanadi. Uning fikricha, xarajatlarni strategik boshqarishda samarali qaror qabul qilish uchun xarajatlarni faol tahlil qilish va prognozlash muhimdir. U, shuningdek, xarajatlarni segmentlar bo‘yicha ajratib, ularga alohida yondashishni taklif etadi, bu esa korxonalar samaradorligini oshirishga yordam beradi[3]. Christopher Nobes xalqaro buxgalteriya standartlari va boshqaruv hisobi bo‘yicha tadqiqotlari bilan tanilgan. U strategik boshqaruv hisobi xalqaro biznes muhitida ham muhim ahamiyat kasb etishini ta‘kidlab, global darajadagi korxonalarda xarajatlarni boshqaruv hisobi orqali samaradorlikni oshirishning ahamiyatini qayd etadi. Nobesning fikriga ko‘ra, strategik boshqaruv hisobining muhim vazifalaridan biri turli davlatlar standartlariga moslashish va global miqyosda moliyaviy hisobotlarni tahlil qilishdir[4]. N.B.Abdusalomovning fikricha, xarajatlarni boshqarish nuqtai nazaridan boshqaruv hisobi tizimini quyidagi ko‘rinishda taqdim etish maqsadga muvofiqdir: ushbu boshqaruv vazifasini amalga oshiruvchi bo‘linmalar; bo‘lim va xizmatlar tomonidan boshqaruv hisobini amalga oshirish imkonini beruvchi faoliyat ko‘rsatkichlari, reglamentlar tizimi. Xarajatlarni boshqarish bo‘yicha ayrim xizmatlarning o‘zaro bog‘liqligini o‘rganish uchun xarajatlarga alohida e‘tibor qaratgan holda, qora metallurgiya sanoati korxonalarida ishlab chiqarishning tayyor mahsuloti tannarxi shakllanishini quyidagicha amalga oshirish maqsadga muvofiqdir[5]. X.T. Yo‘ldoshev o‘z tadqiqotlarida korxonalarining xarajatlar tahlili va boshqaruv hisobi tizimini modernizatsiya qilishning ahamiyatiga urg‘u beradi. Uning fikricha, strategik boshqaruv hisobini rivojlantirish orqali korxonalar nafaqat moliyaviy samaradorlikka erishadi, balki raqobatbardoshlikni ham oshiradi. U, ayniqsa, innovatsion texnologiyalar va raqamli tizimlarni xarajatlarni nazorat qilishda qo‘llashni muhim deb biladi[6]. A.S. Abdullayevning tadqiqotlarida xarajatlarni strategik boshqaruv hisobida iqtisodiy samaradorlikka erishish bo‘yicha yondashuvlar keng yoritilgan. U milliy korxonalarda xarajatlarni segmentatsiya qilish va funksional jihatdan tahlil qilish usullarini joriy etish orqali ular samaradorligini oshirish mumkinligini ta‘kidlaydi. Shuningdek, u korxonalar faoliyatida strategik rejalashtirishni kuchaytirish bo‘yicha qator tavsiyalar bergan[7]. S.H. Sobirovning ilmiy ishlari korxonalarda boshqaruv hisobining o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan. U strategik boshqaruv tizimining samaradorligini oshirish uchun xalqaro standartlarni joriy etishni taklif qiladi. Shuningdek, Sobirov strategik boshqaruv hisobi orqali korxonalar xarajatlarni prognozlash va optimallashtirishni O‘zbekiston sharoitida muvaffaqiyatli amalga oshirish mumkinligini qayd etadi[8].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ushbu tadqiqotda iqtisodiy-statistik usullar, solishtirma tahlil, tajriba va kuzatish usullaridan foydalanilib, mahalliy sharoitga mos taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi. Shuningdek, O‘zbekiston korxonalarida xarajatlarni boshqarishning dolzarb muammolari va ularning hal etish yo‘llarini aniqlash uchun ekspert so‘rovlari va amaliy misollar asosida tadqiqot olib borildi.

**Tahlil va natijalar.** Korxonalarda xarajatlarning strategik boshqaruv hisobini amalga oshirishda bir qator muammolar mavjud bo‘lib, ular ushbu tizimning to‘liq ishlashiga to‘sqinlik qilmoqda. Avvalo, korxonalarining ko‘pchiligida boshqaruv hisobini tashkil etish bo‘yicha yetarli

bilim va ko‘nikmalarga ega mutaxassislarning yetishmasligi kuzatiladi. Bu, ayniqsa, kichik va o‘rta biznes subyektlarida yaqqol namoyon bo‘ladi. Shuningdek, korxonalarda raqamli texnologiyalar va zamonaviy axborot tizimlarining joriy etilish darajasi past bo‘lib, bu xarajatlarni tahlil qilish va strategik boshqarishda samaradorlikni kamaytiradi.

Bundan tashqari, ko‘plab korxonalarda xarajatlarning boshqaruv hisobi faqat qisqa muddatli maqsadlarga yo‘naltirilgan bo‘lib, strategik rejalashtirishga e‘tibor yetarli darajada qaratilmaydi. Xarajatlarni segmentatsiya qilish, funksional tahlil va prognozlash kabi ilg‘or usullardan foydalanish cheklangan. Shu bilan birga, xalqaro standartlarga mos keluvchi boshqaruv tizimlari yo‘qligi, ichki jarayonlarni samarali boshqarishning imkoniyatlarini cheklaydi. Bu muammolarni hal etish uchun xalqaro tajribalarni mahalliy sharoitga moslashtirish va innovatsion boshqaruv usullarini joriy etish zarurdir. Korxonalarining moliyaviy ko‘rsatkichlari, xarajatlar dinamikasi va rentabellik darajasini o‘rganishga qaratilgan. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, strategik boshqaruv hisobini samarali qo‘llaydigan korxonalarda foyda marjasi va resurslardan foydalanish samaradorligi sezilarli darajada oshadi. Masalan, 2020-2023 yillar davomida O‘zbekistondagi yirik sanoat korxonalarining xarajatlarni optimallashtirish dasturi natijasida operatsion xarajatlar o‘rtacha 15% ga qisqargan, rentabellik esa 18% ga oshgan. Shu bilan birga, raqamli boshqaruv tizimlarini joriy etgan korxonalarda qaror qabul qilish tezligi va aniqligi ortib, bu ularning bozordagi raqobatbardoshligini kuchaytirgan. Ushbu natijalar iqtisodiy samaradorlikni ta‘minlash uchun xarajatlarni tahlil qilish va boshqarishda zamonaviy yondashuvlarning muhimligini ko‘rsatadi.

Xarajatlarning strategik boshqaruv hisobidagi muammolarni hal qilish uchun bir necha bosqichli yechimni ishlab chiqish zarur. Birinchi bosqichda, korxonalarda mavjud boshqaruv hisobining tizimlari va jarayonlari tahlil qilinishi kerak, bu orqali asosiy kamchiliklar va mavjud muammolar aniqlanadi. Ikkinchi bosqichda, xarajatlarni boshqarishning innovatsion va xalqaro standartlarga mos tizimlari joriy etilishi lozim, jumladan, raqamli texnologiyalar va axborot tizimlaridan foydalanish. Uchinchidan, xodimlarni malakasini oshirish, ya‘ni boshqaruv hisobi bo‘yicha treninglar va ta‘lim dasturlari o‘tkazish muhim. So‘nggi bosqichda, korxonalarda strategik rejalashtirish va tahlil qilishni kuchaytirish, shuningdek, xarajatlarni prognozlash va segmentatsiya qilish usullarini joriy etish orqali boshqaruvning samaradorligini oshirish zarur.

1-jadval

**Xarajatlarning strategik boshqaruv hisobidagi muammolarni yechish bosqichlari<sup>1</sup>**

Bosqich	Amalga oshiriladigan choralar
1-bosqich	Korxonalaridagi boshqaruv hisobini tahlil qilish va muammolarni aniqlash
2-bosqich	Innovatsion tizimlar va xalqaro standartlarni joriy etish
3-bosqich	Xodimlarni malakasini oshirish va treninglar tashkil etish
4-bosqich	Strategik rejalashtirish va xarajatlarni prognozlash tizimlarini kuchaytirish

Ushbu jadvalda keltirilgan bosqichlar xarajatlarning strategik boshqaruv hisobidagi muammolarni samarali hal etish uchun zaruriy choralarni ko‘rsatadi. Har bir bosqich korxonalarda boshqaruv hisobining samaradorligini oshirishga yo‘naltirilgan, bunda innovatsion tizimlarni joriy etish, xodimlarning malakasini oshirish va strategik rejalashtirishni kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu yondashuvlar amalga oshirilganida, korxonalar xarajatlarni optimallashtirish, moliyaviy samaradorlikni oshirish va raqobatbardoshlikni kuchaytirish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

**Xulosa va takliflar.** Xarajatlarning strategik boshqaruv hisobi korxonalar uchun muhim moliyaviy va operatsion vosita bo‘lib, ularni samarali boshqarish nafaqat qisqa muddatli, balki uzoq muddatli rivojlanishni ham ta‘minlaydi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, O‘zbekiston korxonalarida xarajatlarni boshqarish tizimi hali to‘liq rivojlanmagan bo‘lib, xalqaro standartlarga moslashish va zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish zarur. Strategik boshqaruv hisobining o‘rnatilishi va takomillashtirilishi korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish va moliyaviy holatini mustahkamlash imkonini beradi. Shu bilan birga, xarajatlarni tahlil qilish va boshqarishning innovatsion usullari orqali korxonalar operatsion samaradorlikni oshiradi.

<sup>1</sup> Muallif tomonidan tuzilgan.

O‘zbekiston korxonalarida xalqaro hisob va boshqaruv standartlarini joriy etish orqali xarajatlarni boshqarishning global tajribalariga asoslanish zarur.

Korxonalarda raqamli tizimlar va axborot texnologiyalarini keng joriy etish, xarajatlarni prognozlash va tahlil qilishda samaradorlikni oshiradi.

Boshqaruv hisobining samarali ishlashini ta’minlash uchun mutaxassislarining malakasini oshirish va treninglar tashkil etish kerak.

Korxonalar uchun strategik rejalashtirish jarayonlarini takomillashtirish, xarajatlarni segmentatsiya qilish va ilg‘or tahlil metodlarini qo‘llash zarur.

Xarajatlarni nazorat qilish uchun samarali monitoring tizimini yaratish, bu esa boshqaruvni yanada shaffof va samarali qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Kaplan Robert S. The Balanced Scorecard: Translating Strategy into Action David P. Norton Boston, MA: Harvard Business School Press 1996 yil. 322 bet

2. Hopwood Anthony G. Accounting and Human Behavior. Englewood Cliffs NJ: Prentice-Hall 1974yil 178 bet.

3. Horngren Charles T. Cost Accounting: A Managerial Emphasis Srikant M. Datar va Madhav V. Rajan London: Pearson Education 2020 (16-nashr) 896 bet.

4. Nobes Christopher International Accounting and Comparative Financial Reporting Cheltenham UK: Edward Elgar Publishing 1999 yil 224 bet.

5. Abdusalomova Nodira Baxodirovna. Qora metallurgiya sanoati korxonalarida mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishni takomillashtirish yo‘nalishlari. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 2, mart-aprel, 2019-yil

6. Yo‘ldoshev X.T. Korxonalarda boshqaruv hisobini takomillashtirish masalalari Toshkent: Iqtisodiyot va moliya nashriyoti 2018 yil. 152 bet.

7. Abdullayev A.S. Boshqaruv hisobi va xarajatlarni optimallashtirish Toshkent: "Sharq" nashriyoti 2020 yil 178 bet.

8. Sobirov S.H. O‘zbekiston korxonalarida boshqaruv hisobi: strategik yondashuvlar. Toshkent: "Yangi asr avlodi" 20190 yil. 145 bet.

<p style="text-align: center;"><b>Н.Бердикабилов</b></p> <p style="text-align: center;"><b>Совершенствование стратегического управления затратами на предприятиях</b></p> <p><b>Аннотация.</b> Совершенствование стратегического управления затратами на предприятиях важна для эффективной организации деятельности предприятия и повышения конкурентоспособности. В процессе принятия управленческих решений исследуются инновационные подходы, направленные на улучшение экономических показателей предприятия за счет применения современных методов анализа и контроля затрат, обеспечения стратегического планирования и рационального использования ресурсов, повышения значимости затрат в управленческом учете. В этом направлении изучались возможности формирования эффективной системы управления с учетом международного опыта и местных условий.</p> <p><b>Ключевые слова:</b> стратегический менеджмент, затраты, управленческий учет, эффективность предприятия, стратегическое планирование, управление ресурсами, анализ затрат.</p>	<p style="text-align: center;"><b>N.Berdikabilov</b></p> <p style="text-align: center;"><b>Improving strategic cost management accounting in enterprises</b></p> <p><b>Abstract.</b> Improving the strategic management of costs in enterprises is important for the effective organization of enterprise activities and increasing competitiveness. In the process of making management decisions, innovative approaches aimed at improving the economic indicators of the enterprise by applying modern methods of cost analysis and control, ensuring strategic planning and rational use of resources, and increasing the importance of costs in management accounting are researched. In this direction, the possibilities of forming an effective management system, taking into account international experiences and local conditions, were studied.</p> <p><b>Keywords:</b> strategic management, costs, management accounting, enterprise efficiency, strategic planning, resource management, cost analysis.</p>
--	---

ISSN 2091-5187

☞ “СЕРВИС” ☞

Журнал Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти таҳририят  
бўлимида нашрга тайёрланди.

20.11.2024 йилда теришга берилди. 11.12.2024 йилда босишга рухсат этилди.  
Офсет босма қоғози. Қоғоз бичими 60x84<sub>1/8</sub>. “Times” гарнитураси. Офсет  
босма усули. Шартли босма табағи 14,6. Ҳисоб-нашриёт  
табағи 12,5. Адади 100 нусха. Буюртма № 0134В/24

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институтининг  
матбаа бўлимида чоп этилди.  
Лицензия № 025316.  
Реестр № Х-119112.

Манзил: Самарқанд шаҳри, Шохрух кўчаси, 60-уй.

© Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти, 2024.